

“BOBURNOMA” ASARINING BADIY QIMMATI

Gaziyeva Gavhar Tolkundjanovna
Ergashova Mashxura Amandjanovna

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan
1-son kasb-hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

Zahiriddin Muhammad Boburning eng mashhur asari “Boburnoma”dir. U dastlab “Vaqoe” (Voqealar) deb atalgan. Keyinroq “Voqeoti Boburiy”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Boburiya” nomlarini oldi. Oxirida “Boburnoma” nomi bilan shuxrat topdi.

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning butun umri davomidagi esdaliklaridir. Ushbu asar adibning 12 yoshidan to hayotining so'ngigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi.

“Boburnoma” avvalo, tarixiy asardir. Unda 1494 yildan, ya'ni Bobur taxtga chiqqanidan 1530 yilgacha umrining so'ngigacha yuz bergan voqealar o'z ifodasini topgan. Bu tafsilotlar Bobur o'zi tug'ilib o'sgan Movorounnahr, keyinroq o'zi saltanat qurgan Xuroson (Kobul, G'azna, Kandahor) va Hindistonda yuz bergan voqealardir. Demak, “Boburnoma” XV asrning so'ngi, XVI asrning birinchi choragida mazkur uch mintaqada kechgan voqealarni o'rganishda muhim manbadir.

Muallif o'z asarida voqealar bilan cheklanmaydi, albatta, balki ularning ishtirokchilariga, markaziy qahramonlariga ham keng o'rin beradi. Natijada biz Bobur zamonida yashagan va tariximiz, ma'naviyatimizda muhim mavqega ega bo'lgan davlat va madaniyat arboblari o'rganamiz. Asarda Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud kabi o'nlab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Xusayn Udiy singari adabiyot va san'at arboblari haqida qimmatli ma'lumotlar va mulohazalar keltirilgan.

Bularning hammasi tarix uchun muhimdir. O'sha paytdagi shaharlar tasvirini, Samarqand manzaralarini, orada o'tgan besh yuz yil ichida o'zaro qirg'inlar, ajnabiy istilochilar bosqini bilan qanchadan-qancha obidalar vayron bo'ladi, Biz buyuk sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog'liq muazzam Ko'ksaroyini, Mirzo Ulug'bekning balandligi 31 metr bo'lgan muhtasham rasadxonasini va shu kabi ko'plab qutlug' imoratlarning shakli qiyofasini “Boburnoma” asari orqali o'rganamiz.

Bobur butun umri jangu jadallarda kechishiga qaramasdan, tabiatan nihoyatda ziyrak va sinchkov, g'oyat fahmli va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan bir zot edi. U qayerga bormasin, o'sha yerning geografik joylashish o'rnidan tortib, o'simlik va hayvonot dunyosigacha, qishu yozining ob-havosidan, elining tili-yu urf-odatigacha hamma-hammasi bilan qiziqadi va yozib qoldiradi.

Bobur kim va hima haqda yozmasin, g'oyat samimiydir. O'zining quvonchini ham, g'amini ham hech kimdan yashirmay, ro'yi-rost aytadi. Do'sti haqida ham, dushmani haqida ham ko'nglidagini so'zlaydi.

“Boburnoma” adibning o’ziga xos tarjimai holi, aqlini taniganidan boshlab, umrining oxirigacha kechgan hayoti solnomasi, quvonch va alam, zafar va mag’lubiyat to’la hayotining qaydnomasidir. Muhimi, eng og’ir damlarda ham u o’zining tanti, jo’mard, atrofdagilarga mehribon zot sifatidagi insoniy fazilatlarini saqlab qoladi. Vataniga muhabbatini hayotining so’ngigacha asraydi.

Asarda Boburning ilk she’r mashqlaridan tortib, yirik asarlarigacha yozilish tarixi, ular bilan bog’liq voqealar haqida ma’lumot berilgan.

Bobur vatandan uzoqda bo’lsa ham ona tili ravnaqini o’ylaydi. Uning Kobul va Hindistonda turib, turkiy tilda ijod etishining o’zi ona tiliga bo’lgan mehr-muhabbatidan dalolat edi. Bobur bu bilan cheklanmaydi, turkiy tildagi ijodni rag’batlantiradi, tilni sof saqlash uchun kurashadi. Bu ishlarni o’zga tillarni kamsitmagan holda amalga oshiradi.

U qaysi yurtga bormasin, u yerni obod qilishga, turli-tuman imoratlar, obidalar qurishga harakat qiladi, Hindistondagi katta qurilishlarni amalga oshiradi.

“Boburnoma”da katta o’rinni davrning siyosiy voqealari, temuriylar va shayboniylarning toj-taxt uchun olib borgan kurashlari, jangu-jadallar egallaydi. Bobur yoshligidan o’zaro kechgan g’avg’olar ichida o’sdi. Bu hol uni har bir qadamini o’ylab bosishga, uning natijasini qattiq tahlil o’tkazishga o’rgatdi. Ikkinchi tomondan uning buyuk jahongir bobosining fathlari hali-hanuz tillarda doston edi. Bobosining jang usullari joriy bo’lib, zehni, iqtidorli Bobur bulardan xabardor edi. Uning o’zi ham katta tajriba orttirdi, bu haqda “Harb ishi” nomli maxsus asar yozdi, harb sohibi, sarkarda sifatida shuhrat topdi.

“Boburnoma” Bobur kezgan yurtlar haqidagi o’ziga xos badiiy qomusdir. Bu asar faqat sinchkov emas, badiiy zavqi ham baland bo’lgan ijodkor tomonidan yozilgan. Asarda turli fanlarga oid ma’lumotlar bilan bir qatorda go’zal ijodiy kuzatishlar, chiroyli badiiy lavhalar ham bor. Ayniqsa, Xuroson va Hindiston manzaralari haqida yozganda notanish urf-odatlar, o’simlik va hayvonlar haqida hikoya qilganda Boburning badiiy iste’dodi ish beradi.

“Boburnoma” asari o’zbek adabiyotida nasr taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko’rsatdi. Bu asarni o’qigan o’quvchi albatta, Boburning 12 yoshidan boshlab to umrining oxiriga qadar bo’lgan voqealarini o’rganadi va bilib oladi. Shoir, olim va shoh Boburning ijodi, faoliyati mana shu xususiyatlariga ko’ra ardoqlanib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.B.Qosimov., N.Jumaxo’ja. O’zbek adabiyoti (10-sinf uchun darslik). T.,“O’qituvchi”, 2000.
- 2.N.Erkaboyeva. Adabiyot fanidan savol-javoblar to’plami. T. “Navro’z”, 2018.
- 3.D.Yusupova. Adabiyot. Universal qo’llanma. T., “Akademnashr”, 2015.